

XULQI OG‘ISHGAN O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

*Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
Shukurova Iminur Bahtiyorjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va xuquq ta‘limi yo‘nalishi
talabasi **Iminova Mubina Dilmurodjon qizi***

Annotatsiya: Ushbu maqolada xulqi og‘ishgan o‘quvchilarni tarbiyalashda oila psixologiyasining o‘rni o‘smirlik davri, uning hususiyatlari va xulqi o‘g‘ushkanlikka moyillik sabablari haqida so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: deviantlik, ijtimoiy norma, psixologik omillar, agressiya, xarakter, xulq-atvor

Abstract: This article talks about the role of family psychology in the upbringing of students with deviant behavior, the period of adolescence, its characteristics and the reasons for the tendency to deviant behavior.

Ключевые слова: девиантность, социальная норма, психологические факторы, агрессия, характер, поведение.

Аннотация: В данной статье говорится о роли семейной психологии в воспитании школьников с девиантным поведением, периоде подросткового возраста, его особенностях и причинах склонности к девиантному поведению.

Key words: deviance, social norm, psychological factors, aggression, character, behavior

Globalashuv va ma‘naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatda o‘z o‘rniga ega shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etayotgani hech birimizga sir emas. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev BMTning 72-sessiyasida qilgan nutqida: «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat»[1] deb bejiz ta‘kidlamagan. Jamiyatda mavjud ma‘naviy me‘yorlar yoshlarimizni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bola shirin- odobi undan shirin O‘zbek xalq maqoli Og‘ish deganda jamiyatda o‘rnatilgan har qanday me‘yor va normalardan chetlashish va boshqa shaxsga, odamlar guruhiga yoki hayvonga zarar yetkazuvchi yoki zarar yetkazishni maqsad qilgan har qanday harakat tushuniladi. Og‘ishning yaqqol ko‘rinishlaridan biri bu agressiyadir.

Агрессивлик - бу tajovuzga tayyorlikda ifodalangan shaxsiy xususiyatdir. Demak, tajovuz - bu boshqa obyektga zarar yetkazuvchi muayyan harakatlar majmui; tajovuzkorlik esa tajovuz yo'naltirilgan shaxsning boshqa bironing xatti-harakatlarini tegishli tarzda idrok etish va sharhlashga tayyorligini ta'minlaydi. Bir tomondan, sub'ektning barcha tajovuzkor harakatlari haqiqatan ham shaxsning tajovuzkorligi emas. Boshqa tomondan, odamning tajovuzkorligi har doim ham aniq tajovuzkor harakatlarda o'zini namoyon qilmaydi. Namoyish - tajovuzkorlikning shaxsiy mulk sifatida namoyon bo'lishi emas, balki muayyan xatti-harakatlarda har doim trans-situatsion va vaziyat omillarining murakkab o'zaro ta'siri natijasidir. Агрессив bo'lmagan shaxsning tajovuzkor harakatlarida vaziyat omili bu harakatlarning asosidir. Агрессив shaxsning tajovuzkor harakatlarida ustuvorlik shaxsiy fazilatlarga tegishli.[4] Shu tarzda tajovuz situatsion va shaxsiyat barqaror va beqaror. Vaziyatga oid tajovuzkorlik vaqti-vaqti bilan namoyon bo'ladi, shaxsiy tajovuzkorlik esa buning uchun hamma joyda va har doim qulay sharoitlar yaratilgan joyda xizmat qiluvchi barqaror individual xulq-atvor hususiyatlaridir.

Yoshlarda xulq og'ishini oldini oluvchi ijtimoiy va psixologik omillarni o'rganar ekanmiz, hozirgi kun uchun muhim hisoblangan ilmiy gipoteza(faraz)larni, bu sohaga doir nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash mavzumizni yortishdagi ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Yoshlar o'rtasida xulq og'ishini barvaqt oldini olish to'g'risida nafaqat profilaktika idoralari, Ichki ishlar va Sog'liqni saqlash, ta'lim, sport va turizm, madaniyat vazirliklari tomonidan rioya qilingan ijtimoiy nazorat va cheklovlar pozitsiyasidan kelib chiqib qarash noo'rin.[2]

Og'ishgan xulqli yoshlarda metodika ko'rsatkichlariga ko'ra "O'ziga zarar keltirish va o'z xulqini buzishga moyillik" ortgani sari "Emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish" xususiyatlari kamayib boradi. Bunday toifadagi yoshlarda o'ziga zarar yetkazish hissi ustunlik qilib, natijada o'z hissiyotlarini boshqara olmaslik, tashqi taassurotlarni qabul qilmaslik holatlari ham kuzatiladi.[3]

Bunday holatlarni oldini olish, maxsus psixokorreksion mashg'ulotlar olib borish shaxs ichki olamini va uning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib yondashishni talab etadi.[5] Olingan natijalar asosida shuni aytishimiz mumkinki, o'ziga zarar yetkazish turlaridan biri bo'lgan suitsidual holatlarning kelib chiqishiga aynan shaxsning o'zini emotsional iroda qila olmasligi sabab bo'ladi, deyish mumkin. Natijada esa, shaxsda psixik buzilish holatlari kelib chiqishi bilan birgalikda, o'ziga va atrofdagilarga jiddiy ma'naviy, moddiy va psixologik zarar yetkazish holatlari sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hozirgi kunda farzand tarbiyasi va kamol topishida ota-onalarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Farzand kelajagi uchun jon kuydirish dolzarb masalalardan biri ekan ularning ta'lim tarbiyasiga alohida etibor berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2018. –508-b.
2. Gilinskiy Ya.I. Sotsialʼnyy kontrolʼ nad deviantnostʼyu v sovremennoy Rossii: teoriya, istoriya, perspektivy // Sotsialʼnyy kontrolʼ nad deviantnostʼyu. SPb,1998.-S.4-21.
3. Dodge K.A. (1993). Xulq-atvor va depressiyani rivojlanishidagi ijtimoiy-kognitiv mexanizmlar. Yillik psixologiya sharhi, 44, 559-584. doi: 10.1146 / annurev.ps.44.020193.003015.
4. Shukurova, I. (2023). CHILDREN WITH DEVIANT BEHAVIOR. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(12), 274-279.
5. Shukurova, I. (2024). PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE IN ADOLESCENCE. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(1), 65-69.